

ijtimoiy sohani moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va ijtimoiy investitsiyalar samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni*

3. *Raxmonov D.A. (2018) O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslari.*

4. *www.imf.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti*

## **SOLIQ MAJBURIYATLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOBGA OLISH**

***Sh.B. Butunov***

*Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya.*** Mazkur maqolada soliq majburiyatlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida hisobga olishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlarining tan olinishi, baholanishi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishiga oid masalalar IAS 12 "Daromad solig'i" standarti talablari asosida tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** soliq majburiyati, joriy soliq, kechiktirilgan soliq, MHXS, IAS 12, moliyaviy hisobot.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi ko'p jihatdan ularning soliq majburiyatlarini to'g'ri va shaffof hisobga olishiga bog'liq. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida moliyaviy hisobotni xalqaro darajada solishtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu sababli soliq majburiyatlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Soliq majburiyati — bu xo'jalik yurituvchi subyektning davlat byudjeti oldidagi qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatidir. U moliyaviy hisobotda majburiyat sifatida e'tirof etiladi va kelgusida iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga olib keladi.[3]


Xalqaro amaliyotda soliq majburiyatlari quyidagilarga bo'linadi:

- joriy soliq majburiyatlari;
- kechiktirilgan soliq majburiyatlari.

Joriy soliq majburiyati — bu hisobot davrida olingan soliq solinadigan foyda uchun hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasidir. IAS 12 talablariga ko'ra, joriy soliq majburiyati soliq qonunchiligida belgilangan stavkalar asosida hisoblanadi va moliyaviy hisobotda alohida majburiyat sifatida tan olinadi.

Joriy soliqlar davr uchun joriy soliqlar buxgalteriya foydasi bo'icha emas, balki soliq organlari qoidalari bo'yicha hisoblanadigan soliqqa tortiladigan foydadan kelib chiqib hisoblanadi. Soliqqa tortilgunga qadar buxgalteriya foydasi bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliq o'rtasida bog'liqlikning buzilishi mavjud. Sababi, soliq stavkasi soliqqa tortilgunga qadar buxgalteriya foydasiga nisbatdan emas, soliq qonunchiligining qoidalari bo'yicha hisoblangan foydaga, ya'ni soliq solinadigan foydaga nisbatdan qo'llaniladi.

Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortiladigan foydaning ikkita farqi natijasida yuzaga keladi. (1-rasm)



**1-rasm. Buxgalteriya hisobi foydasi va soliqqa tortiladigan foyda o'rtasidagi farqlarning ikkita omili**

Agar foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olingan ayrim xarajatlar soliq maqsadlarida tan olinmasa, doimiy xarajatlar yuzaga keladi. Ushbu xarajatlarning hisobida foyda solig'i bo'yicha xarajatlar oshadi. Bunday xarajatlarga korxonaning asosiy ustav faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarga, masalan xodimlarning xordiq chiqarishlari uchun to'lovlar, xayriya yordamlarini amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar va boshqa shu turdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Vaqtinchalik farqlar esa moliyaviy hisob maqsadlarida ham, soliq maqsadlarida ham tan olinadi, lekin tan olish davrida farq qiladi. Masalan, amartizatsiya xarajatlari, moliyaviy hisob maqsadlarida tezlashtirilgan amartizatsiya usullarida amalga oshirilishi, soliq maqsadlarida esa Soliq kodeksida belgilangan amartizatsiya normalari asosida hisoblanadi. Masalan, agar asosiy vosita uch yil xizmat ko'rsatadigan bo'lsa, moliyaviy hisobotda birinchi yilda ko'proq amartizatsiya hisoblanadi, natijada bu holat birinchi yillar foydasini kamaytiradi. Keyingi yillarda esa amartizatsiya birinchi yilga nisbatdan kamroq hisoblanadi, natijada foyda ko'proq bo'ladi. Soliq hisobida esa belgilangan norma asosida har yili bir tekis hisoblanadi. Lekin, uch yil davomida moliyaviy hisobda ham soliq hisobida ham hisoblangan amartizatsiya summasi teng bo'ladi. Amartizatsiya summalarining yillarda taqsimoti turlicha

bo'ladi, lekin umumiy hisoblangan amartizatsiya bir xil bo'ladi. Bu davrlar o'rtasida, ya'ni vaqt o'rtasida tafovutni yuzaga keltiradi. Buni xalqaro standartlarda va amaliyotda vaqtinchalik farqlar deb yuritiladi.[4]

Soliq to'lovchilar bo'yicha joriy xarajatlar hisobi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### Soliq to'lovchilar bo'yicha joriy xarajatlar hisobi (so'm)

Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil
Buxgalteriya foydasi	114 075 000	136 848 900
<b>Qo'shiladi</b>		
Buxgalteriya hisobi maqsadlarida amartizatsiya	50 845 000	60 946 000
Xayr-ehson chiqimlari	5 348 500	6 250 900
Atrof-muhitni ifloslantirganligi uchun jarima	3 200 600	4 526 800
Tovar-moddiy qiymatliklarni yaroqsizligi sababli hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zarar	2 520 800	2 200 300
Mol-mulk narxining pasayishi		1 300 400
<b>Ayiriladi</b>		
Soliqqa tortish maqsadlari uchun amartizatsiya	(40 945 000)	(50 650 800)
<b>Soliqqa tortiladigan foyda</b>	<b>135 044 900</b>	<b>161 422 500</b>
25 % lik soliq bo'yicha joriy xarajatlar	33 761 225	
15 % lik soliq bo'yicha joriy xarajatlar		24 213 375

Ushbu qoidalarni inobatga olgan holda hisoblangan soliq solinadigan foyda soliq bazasi hisoblanadi. Ushbu bazaga mamlakatda belgilangan foyda solig'i stavkasiga ko'paytirilib byudjetga o'tkaziladigan foyda solig'i summasi hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda foyda solig'i stavkasi 15 % lik qilib belgilangan. Barcha yuridik shaxslar belgilangan muddatlarda foyda solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni soliq organlariga taqdim etadi (2-jadval).

### 2-jadval

#### Kompaniyaning 2024 yil dekabr oyi uchun foyda solig'i hisob-kitoblar (so'mda)

Ko'rsatkichlar	Summa
Jami daromad	224 268 851 454
Chegiriladigan xarajatlar	178 714 667 629
Soliq solinadigan foyda (224 268 851 454 -178 714 667 629)	45 554 183 825
Imtiyozlar	0
Soliq to'lovchining nolъ stavkasi qo'llaniladigan foydasi	0
Soliq solinadigan baza	45 554 183 825
Foyda solig'ining belgilangan stavkasi, %	15
Foyda solig'i summasi (45 554 183 825 x15%)/100%	6 833 127 574
Hisobot davrida hisoblangan avans to'lovlari	1 500 000 000
Byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan foyda solig'i summasi (6 833 127 574-1 500 000 000)	5 333 127 574

Joriy soliq majburiyatlari quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:  
*Debet: 9810 "Soliq xarajatlari"*

*Kredit: 6420 "Joriy soliq majburiyatlari"*

Bu yondashuv foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda soliq yukini aniq ko'rsatish imkonini beradi.

Kechiktirilgan soliq majburiyati aktiv yoki majburiyatning balans qiymati bilan uning soliq bazasi o'rtasidagi vaqtinchalik farqlar natijasida yuzaga keladi. IAS 12 ga muvofiq, soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan soliq majburiyati e'tirof etiladi.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari quyidagi hollarda shakllanadi:

- asosiy vositalarning tezlashtirilgan amortizatsiyasi;
- zaxiralar va rezervlar bo'yicha baholash farqlari;
- daromad va xarajatlarning tan olinishi vaqtidagi tafovutlar.

Ularni hisobga olish korxonaning kelajakdagi soliq yukini prognoz qilish imkonini beradi.

**3-jadval**

**Yuzaga kelgan vaqtinchalik farqlar tahlili [5]**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Balans qiymati</b>	<b>Soliq bazasi</b>	<b>Vaqtinchalik farqlar</b>	<b>Muddati uzaytirilgan soliq</b>
2022 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	156 000 000	156 000 000	0	0
2022 yil uchun depresiatsiya xarajatlari	103 989 600	52 000 000		
2023 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	52 010 400	104 000 000	(51 989 600)	7 798 440
2023 yil uchun depresiatsiya xarajatlari	34 670 133	52 000 000		
2024 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	17 340 267	52 000 000	(34 659 733)	5 198 960
2024 yil uchun depresiatsiya xarajatlari	17 340 267	52 000 000		
2024 yil 31 dekabr holatida asosiy vositalar	0	0	0	0

MHXS balans yondoshuviga asoslangan, shu bois muddati uzaytirilgan soliqlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot nuqtai nazaridan qaraladi.

Shu bois MHXSga o'tish jarayonida soliq majburiyatlarini hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq majburiyatlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish moliyaviy hisobotning ishonchliligi va shaffofligini oshiradi. IAS 12 talablari asosida joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlarini to'g'ri e'tirof etish korxonaning moliyaviy

holatini real baholashga xizmat qiladi. Bu esa investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 сентябрдаги №282-сон “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори* <https://lex.uz/uz/docs/7728924>

2. Робин Джойс. МСФО 37 Резервы, условные обязательства и условные активы. 2017г. Учебные пособия по МСФО. <https://finotchet.ru/articles/1270/>

3. З.Т.Фарманова. *Замонавий бухгалтерия хисоби ва халқаро бухгалтерия хисобида мажбуриятларни таснифлашнинг ўзига ҳос хусусиятлари* //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali <http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal> 4/2024, iyulavgust (№ 00072) 6-б.

4. Ч.А.Жаббарова. *Мажбуриятларни тан олишнинг айрим жиҳатлари* // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2024-yil, yanvar. 348-б.

5. Аверчев И.В. *МСФО. 1000 примеров применения-М.: Рид Групп, 2011.-386-б. Муаллиф томонидан қайта ишланган*

## **BILVOSITA SOLIQLAR HISOBI VA UNI TASHKIL ETISH MASALALARI**

***Djalilov Rahmonkul Hamidovich***

*Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada soliq tizimida soliq sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning bilvosita soliqlarni hisobga olish mexanizmlariga ta'siri o'rganilgan.*

***Kalit so'zlari:*** *soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, raqamli soliqqa tortish.*

Iqtisodiyotni glaballashuvi sharoitida mamlakatlar byudjet daromadlarini shakllanishida bilvosita soliqlarning o'рни alohida. Bilvosita soliqning bir neshta misollari mavjud bo'lib, ular odatda ushta toifadan biriga kiradi: savdo va xizmatlar soliqlari, bojxona va aktsiz solig'i, faoliyatga asoslangan soliqlar[1]. Xalqaro to'g'ridan-to'g'ri soliqlar markaziy kengashi (SBDT) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-moliya yilida to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning umumiy soliq tushumlariga qo'shgan hissasi 56,72% ni tashkil etdi, bu 2023-moliya yilidagi 54,63 foizdan oshib, bilvosita soliqlar ulushini 43,28 foizga kamaytirdi[2].

Ko'pgina mamlakatlarda bilvosita soliqlarning hissasi, xususan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi katta hisoblanadi. Hozirgi vaqtda 174 mamlakatda QQSni qabul qilgan. Bunga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga